


# Namangan viloyati Statistika boshqarmasi



## QURILISH ISHLARI 2020- yilning yanvar-may oylari holatiga



2020- yilning yanvar-may oylarida Namangan viloyatida jami 1423,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 190,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 13,3 % ni tashkil etdi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,2 martaga o'sdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 61,8 % i yoki 880,0 mlrd. so'm to`g`ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 84,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 24,9 % yoki 353,9 mlrd. so'mga to`g`ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,2 % ni tashkil etdi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi - 190,0 mlrd. so'm
- o'sish sur'ati - 4,2 %

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- hajmi - 880,0 mlrd. so'm
- o'sish sur'ati - 84,7 %

### Norasmiy sektor

- hajmi - 353,9 mlrd. so'm
- o'sish sur'ati - 109,2 %


2020- yilning yanvar-may oylarida Namangan viloyatida jami 1423,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni tashkil etdi va 184,5 mlrd. so'mga ko'paydi.

2020- yil yanvar-may oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 190,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 martaga o'sib, 150,9 mlrd. so'mga ko'paydi, hamda jami qurilish ishlari hajmining 13,3 % ini tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 880,0 mlrd. so'mi to`g`ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 84,7 % ni tashkil etib, 27,1 mlrd. so'mga kamaydi, hamda jami qurilish ishlari hajmining 61,8 % ini tashkil etdi.


Norasmiy sektor hissasiga 353,9 mlrd. so'm to`g`ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,2 % ni tashkil etib, 60,7 mlrd. so'mga ko'paydi, hamda jami qurilish ishlari hajmining 24,9 % ini tashkil etdi.

### **Qurilish ishlari (mlrd. so'm)**





## IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihibalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 904,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 66,5 mlrd. so'mga ko'paydi, hamda jami qurilish ishlari hajmining 63,5 % ini tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 259,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 83,8 mlrd. so'mga ko'paydi, hamda jami qurilish ishlari hajmining 18,2 % ini tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 259,9 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 34,1 mlrd. so'mga ko'paydi, hamda jami qurilish ishlari hajmining 18,3 % ini tashkil etdi.

## Yanvar-may oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




Bino va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 0,4 % ni tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan 0,6 % ga kamaydi. Bunda kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 60,5 % (3,6 % ga kamaydi) va norasmiy sektoring ulushi 39,0 % (4,2 % ga ko`payish) ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish ishlari bo`yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 70,1 % ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 54,6 % ga ko`paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 29,8 % ni tashkil etib, o`tgan yil ning mos davriga nisbatan 54,0 % ga kamaydi. Norasmiy sektoring ulushi 0,2 % ni tashkil etib, o`tgan yil ning mos davriga nisbatan 0,4 % ga kamaydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 % punktga ko`paydi va 1,8 % ni tashkil etdi. Qolgan 98,2 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi.

### **2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 62,1 mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 72,3 % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 1361,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatda tutgan ulushi mos ravishda 4,4 % va 95,6 % ni tashkil etdi.




## QURILISH ISHLARI HAJMI HUDUDLAR KESIMIDA



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Namangan shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududlarda bajarilgan qurilish ishlarining, 89,7 % i yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan.

### Tumanlar kesimida qurilish ishlari % da




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Namangan shahrida (473,9 mlrd. so'm yoki 120,2 %) – Shunga asosan jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan va kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini qurib bitirish ishlari amalga oshirilgan;

Kosonsoy tumanida (144,0 mlrd. so'm yoki 109,3 %) - Shunga asosan jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes subyektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

Namangan tumanida (126,4 mlrd. so'm yoki 81,0 %) - Shunga asosan jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi.

### **2020- yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati % da**




## Hududlar kesimida qurilish ishlarining o'sishi

<b>№</b>	<b>Shahar tumanlar</b>	<b>2019- yil yanvar-may (mlrd. so'm)</b>	<b>2020- yil yanvar-may (mlrd. so'm)</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan (%) da</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi (%) da</b>
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>		<b>1239,4</b>	<b>1423,9</b>	<b>101,2</b>	<b>100,0</b>
<b>1</b>	Namangan shahar	473,9	344,9	120,2	33,3
	<i>tumanlar:</i>				
<b>2</b>	Mingbuloq	47,6	44,5	94,2	3,3
<b>3</b>	Kosonsoy	144	117,1	109,3	10,1
<b>4</b>	Namangan	126,4	137,9	81,0	8,9
<b>5</b>	Norin	60,8	60,4	90,0	4,3
<b>6</b>	Pop	80,3	75,1	93,8	5,6
<b>7</b>	To'raqo'rg'on	67,9	66,3	90,3	4,8
<b>8</b>	Uychi	137,1	134,3	89,6	9,6
<b>9</b>	Uchqo'rg'on	59,1	45,4	115,1	4,1
<b>10</b>	Chortoq	73,8	72,9	89,4	5,2
<b>11</b>	Chust	84,2	80,1	93,6	5,9
<b>12</b>	Yangiqo'rg'on	68,8	60,5	101,3	4,9

## Hududlar kesimida qurilish ishlari o'sishi

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi, xususan, Namangan shahrida 473,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,2 % ga o'sdi, Kosonsoy tumanida 144,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,3 % ga o'sdi, Yangiqo'rg'on tumanida 68,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga o'sdi. Uchqo'rg'on tumanida esa 59,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,1 % ga o'sdi.




Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 33,3 % ini tashkil etdi, Kosonsoy tumanida bu ko`rsatkich 10,1 % ni, Uychi tumanida esa 9,6 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Norin tumanida ushbu ko`rsatkich 4,3 % ni, Mingbuloq tumanida bu ko`rsatkich eng past 3,3 % ni tashkil etdi.

## 2020- yilning yanvar-may oylarida qurilish ishlaringning

### umumi hajmda hududlarning ulushi

(umumi hajmga nisbatan % da)



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlaringning hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**Namangan viloyati statistika  
boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (69) 226-84-85**